



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MILLIY QADRIYATLAR  
VOSITASIDA EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLANTIRISH**

**Yaxshiboyeva Laylo Axtam qizi**

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Institutu Ta'lif va tarbiya nazariyasi va  
metodikasi (maktabgacha ta'lif) yo'nalishi I bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar tarbiyasida ekologik madaniyatni shakllantirish omillari hamda ekologik tarbiyaning ilmiy nazariyasi xususidagi ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *milliylik, madaniy aloqalar, estetika va etika, maktabgacha ta'lif o'qitish metodikasi, vatanparvarlik, milliy ruh*

Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof–muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvdir. Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlari: 1) axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim madaniyatlilik sifati bo'lib, uning atrof – muhitni hissiy bilish jarayoni atrof – muhitdagi obyektlar va hodisalarni sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligini nazarda tutadi; 2) ekologik ma'suliyatlilik shaxsda munosabat va ma'sullikni tarbiyalashda namoyon bo'ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o'ylamay tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri oqibatlarini anglash va bunday ta'sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi; 3) ekologik irodaviylik shaxsning o'zi va o'zgalarning atrof – muhitdagi hatti-harakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat'iyatlilik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog'liq. Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilalar kiradi. Masalan, ekologik qadriyatning bir turi, ya'ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish yer, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho'llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bo'gliq. Ekologik ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash bog'chalar, mакtablar, lisey, kollejlar, oliygohlarda mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq. Aholining boshqa tabaqalarida esa O'zbekiston ekologik partiyasi va boshqa ko'ngillilar, tashkilotlar tomonidan targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilishi mumkin. Ekologik ta'lifning nazariy asosi – atrof muhit muhofazasiga oid ta'lifni bog'cha, mакtab, katta-kichik o'quv yurtlari, oliy o'quv yurtlarida ma'lum o'quv reja va dasturlari asosida olib borish hamda malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Yig'ilgan tajribalar

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



umumlashtirilib bir pedagogik shaklga keltirilib o'quv dasturi darsliklari tuzilishi lozim.

Oliy va o'rta maxsus ta'limga ega bo'lgan tarbiyachi, ekologik metodist, ekologik pedagog, ekologik instruktor, injener-ekolog, ekolog-agroximik, ekolog-texnolog kabi mutaxassislar tayyorlanishi lozim. Ekologik ma'nnaviyatli shaxs tabiatdagi obyekt va hodisalarni qiyoslay olishi, ongli tushunchalar hosil qilishi, tabiatga munosabatni oldindan rejalashtirishi, atrof-muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan ziyrak bo'lishi, tabiatga qiziquvchan bo'lishi, tabiat go'zalligini his eta olishi, tabiatni muhofaza qilishda qat'iyatli bo'lishi, tabiatga zarar yetkazmaslik, boshlangan ishni oxirigacha yetkazishi, atrof-muhit muhofazasida tashabbus ko'rsatishi, tabiatni asrash uchun yangi g'oyalar, ekologik bilimlarni targ'ib qilishi, ijtimoiy foydali mehnatga havas hissini shakllantirishi, mehnat malakalarini egallashi, o'z-o'zini nazorat qila olishi, tabiat bilan munosabatga kirishish va undagi faoliyatda me'yor darajasini belgilashni bila olishi, vatanparvarlik, ona tabiatga mehr-muxabbat hissiyotiga ega bo'lishi, o'zi yashab turgan uy, mahalla, shahar tabiatini sevishi, undan g'ururlanishi, uni ardoqlashi lozim, tabiat boyliklaridan bugungi va kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirishni hisobga olgan holda barqaror foydalana olishi, atrof – muhitni obod qilishga intilish, uni ozoda va xushmanzara holda saqlashi, tabiatni asrab-avaylashda, tabiat boyliklarini maqsadli ishlatishda jonbozlik namoyon eta olishi, atrof – muhit, obyekt va boshqa narsa-hodisalarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi, o'zining ekologik bilimlarini muntazam ravishda tabiatni asrab-avaylashga oid qadriyatlarimizga tatbiq qilishi lozim.

Jahonda zamonaviy ekologik ta'lif institatlari bugun atrof-muhit bilan chinakam insoniy munosabatlarni shakllantirish, atrof-muhit bilan insonning yanada kafolatlangan rivojlanishini ta'minlaydigan o'ziga xos ijtimoiy-tabiiy o'lchovini aniqlash va xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish masalalariga alohida ustuvorlik bermoqdalar. Xalqaro pedagogik hamjamiyat zamonaviy ekologik ta'lifning yetakchi vazifasi sifatida shaxsni ekologik fikrlashga o'rgatish tizimini yaratish va bolalarga ekopedagogik ta'sir ko'rsatish orqali ekologik tarbiyalash mexanizimini takomillashtirish ustida izlanishlar olib bormoqda.

Dunyo ekotadqiqotlar tizimida ekologik dunyoqarashni milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro munosabati, shaxsning atrof-muhitga estetik munosabatini jamiyat ekologik ongi va madaniyati bilan integrativ aloqadorligi sifatida baholash yangicha metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini bermoqda. Shu sababli bolalarni ekologik tarbiyalash jarayonida atrof-muhitni asrab-avaylash, g'amxo'rlik qlishga o'rgatishning didaktik ta'minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ekologik ta'lif "fanlararo mavzu" sifatida uchta asosiy tushuncha – tizim, dunyoqarash, kelajak orqali tasniflanib, bolalarda atrof-muhitga estetik munosabat va amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi.

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Yangi O'zbekistonni barpo etishda atrof-muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasida belgilangan "aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkoraliq darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish" muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekistonning iqlimi o'zgarishi bo'yicha Parij bitimini amalga oshirish bo'yicha Harakatlar milliy rejasini ishlab chiqish va qabul qilish, 2019–2030-yillarda O'zbekistonning «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyalari, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi ekologik halokatlarning oldini olish vazifalariga erishish kabi ulkan maqsadlar yo'lida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yangi davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish hamda ana shu maqsadga xizmat qiluvchi mакtabgacha ta'lim tashkiloti bolalarini ekologik tarbiyalash texnologiyalarini takomillashtirish zaruratinini taqozo etadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida ta'kidlaganidek, "Biz Orol bo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etadi. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani "Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni" sifatida joriy qilish va amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lardi". [18]

O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'limni tubdan takomillshtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida: "- kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning amaldagi tizimi maktabgacha ta'lim sohasini bolalarni tarbiyalash va hartomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlay olmasligi" kabi mavjud tizimli kamchiliklar maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilishi ta'kidlab o'tilgan.

Dunyo mamlakatlarida ekologik ilm-ma'rifat vositasida tabiatga, atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish jarayoni ildam kechayotgan bo'lsa-da, jadal rivojlanayotgan ijtimoiy va ilmiy-tehnologik taraqqiyot tufayli biosferada ekologik muvozanat buzilib, mahalliy va mintaqaviy qamrovdag'i ekologik muammolar kun sayin oshib bormoqda. Agar bu muammolar o'z vaqtida bartaraf etilmasa, tabiat va kishilik jamiyatni qachonlardir, oxir-oqibat, ekologik tanglik (tanazzul) girdobiga tushib qolishi mumkin. SHu sababli zamonaviy ijtimoiy-ekologik muammolarni amaliy hal etishda ekologik ilm-ma'rifat va kasbiy faoliyatning barcha turlarini mumkin qadar ekologiyalashtirish alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bugungi kunda, bu masalaning o'ta dolzarbligiga qaramay, ekologiya va atrof-muhit muhofazasining "shuhrati" va unga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlar negadir kamaygandek, boshqaruv organlari va ta'lim muassasalarida uni rivojlantirishga bo'lgan qiziqishlar nisbatan susaygandek taassurotlar paydo bo'imqoda. Lekin

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



shunday bo'lsa-da, ekologik ilm-ma'rifat dolzARB muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda.

O'tgan asr oxirida ekologik ta'lIM-tarbiya nazariyasi va metodikasini ishlab chiqishdagi dastlabki qadam tabiatni muhofaza qilish vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan, odamning tabiatni muhofaza qilish faoliyati esa uning asosiy mazmuniga aylangan. Biroq tabiatni muhofaza qilish ta'lIM - tarbiysi, o'sha paytdagi tajribalar ko'rsatganidek, odamning tabiatga uyg'un munosabatini shakllantirishda muhim o'rIN tutmagan.

SHuningdek, mustaqillik yillarda ekologik ta'lIM-tarbiya nazariyasi va metodikasi mazmunan qayta ko'rib chiqilib, uning turli jihat-lariga oid umumdidaktik qonuniyatlar, printsipler ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ekologik ta'lIM-tarbiya, ekologik ong va madaniyatni shakllantirish jarayonlarining mazmun-mohiyati, ularning tuzilmasi va o'zaro bog'liqligi masalasi nazariy-metodologik, ilmiy-pedagogik jihatdan to'liq, tizimli o'rganilmagan. Agar odamning o'z-o'ziga, boshqa kishilar va atrof-muhitga bo'lgan munosabati ekologik ong va madaniyat nuqtai nazaridan tahlil etilsa, ekologik ta'lIM-tarbiya nazariyasi va metodikasini tubdan qayta ko'rib chiqish zaruriyati paydo bo'ladi. Bu zaruriyat, tabiiyki, samarali ekologik ta'lIM-tarbiya tizimini vujudga keltiradi.

Demak, ekologiya, tabiatdan foydalanish, atrof-muhit muhofazasi va barqaror taraqqiyot sohasidagi ta'lIM-tarbiyaning muhimligi – insoniyat oldidagi inkor qilib bo'lmaydigan o'ta dolzARB muammo ekanligi bilan tavsiflanadi.

Tabiatdan foydalanish jamiyatning moddiy va ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida □ tabiiy sharoit va resurslar xilma-xilligidan foydalanish shakllari va ularni muhofaza qilish chora-tadbir-lari majmui. Tabiatdan foydalanish bo'yicha har bir tadbir uni muhofaza qilish bilan birga qo'shib olib borilgandagina atrof-muhit ifloslanishi-ning oldini olish mumkin bo'ladi.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda ekologik masalalar, tabiatda ro'y berayotgan noxush hodisalar oqibatini bartaraf etish, ro'y berishi mumkin bo'lgan bunday vaziyatlarning oldini olish kabi dolzARB vazifalarga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Insonning tabiatga noto'g'ri munosabati natijasida yuzaga keladigan salbiy holatlarning oldini olishda ekologik ta'lIM-tarbiyaning o'rni nihoyatda katta. Jahonning barcha mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham shaxs va jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati ekologik mazmunga ega bo'lmoqda. Endilikda respublikamizda chiqindisiz, kam chiqitli va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish va takomillashtirish, ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriyhuquqiy choralar ko'rish, ekologik ma'rifat orqali aholining ekologik tafakkurini rivojlantirish, xalqaro ekologik munosabatlarni yo'lga qo'yish, tabiat, atrofmuhitga ko'rsatilayotgan salbiy antropogen ta'sirlarni kamaytirish, insonning atrofmuhitga sifat jihatidan yangicha munosabatini shakllantirishga olib kelmoqda.



Maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga qo'yilgan umumiy talablarda ham ularning ekologik mas'uliyatni his qilishi, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tasavvurlarga ega bo'lishi lozimligi alohida ko'rsatib o'tilgan. Vatanimiz tabiatini, atrof-muhitiga nisbatan hurmat, ehtiyotkorona munosabat va unga mas'uliyat bilan qarash hissini maktabgacha yoshdagi har bir bola shaxsida tarbiyalashimiz lozim. Maktabgacha yoshdagi bola o'z atrofidagi tabiiy-ijtimoiy muhit ta'sirida va mahallada o'rnatilgan axloqiy-ekologik tartibotlar asosida yashaydi. Zero, yurtimizning go'zal tabiatini, uning kelgusi holati aynan ularning atrof-muhitga bo'lgan munosabati orqali belgilanadi. Mamlakatimizdagi atrof-muhitni asrab-avaylash, g'amxo'rlik qilishga o'rgatishning eng muhim vositalaridan biri o'sib kelayotgan yosh avlodni tabiatni asrashga oid ekologik bilimlardan xabardor qilish, ularga ekologik tarbiya berish hisoblanadi.

Tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uning boyliklaridan unumli foydalanish, tevarak-atrofdagi muhitni yaxshilash, uning buzilishi, ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, tabiatga nisbatan axloqiy qimmatdagi hatti-harakatlarni amalga oshirish malaka va ko'nikmalari esa bolalikdan rivojlantirilsagina maqsadga erishish mumkin. Kishilarning butun hayoti davomida ta'lif-tarbiya berish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu ishlarning dastlabki shakllari maktabgacha ta'lif yoshidan boshlanishi zarur. Bolaning maktabgacha ta'lif yoshi davrida tevarak-atrofdagi borliqqa nisbatan ongli ravishda tabiatga ijobiy munosabati tarkib topa boshlaydi va u ona tabiatga bo'lgan g'amxo'rligini orttira boradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.2014yil
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni.2020-yil 23 sentabr O'RQ-637son.
3. SH.M.Mirziyoyevning 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lifni tubdan takomillshtirish choratadbirlari to'g'risida"gi qarori".
4. 2022-2026-Yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida.28.01.2022yildagi PF-60-son.
5. Maktabgacha ta'lif va tarbiyaning davlat standarti. -T.: 2020-yil 23-dekabrdagi 802-son qarori.
6. "Maktabgacha ta'lif tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198 sonli Farmoni.
7. "Ilk qadam" davlat dasturi. -T., 2018-yil.
8. Maktabgacha ta'lif Konsepsiysi. -T., 2019.
9. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
10. [www.pedagoguz1.uz](http://www.pedagoguz1.uz) [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)